

SANOAT TARMOQLARIDA MODERNIZATSIYA VA INNOVASION ISLOHOTLAR: O'ZBEKISTONNING INDUSTRIAL TRANSFORMATSIYASI

Nabiyev G'ulom Abdisalomovich

Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Anotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekiston sanoat tarmoqlarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari va innovasion islohotlarning mazmun-mohiyati ilmiy asosda tahlil etiladi. Industrial transformatsiya sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovasion klasterlar va texnoparklar rivojlanishi natijalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sanoatning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda energiya samaradorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati va istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar asoslantiriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat tarmoqlaridagi modernizatsiya iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida O'zbekistonning global iqtisodiy maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Innovasion islohotlar, industrial transformatsiya, raqobatbardoshlik, sanoat 4.0, investitsiyalar, texnoparklar, energiya samaradorligi, qayta ishlash sanoati, eksport salohiyati.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni doirasida mamlakat taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad belgilab berilgan. Ushbu strategiyaning 25-maqsadining 4-chi bandida "Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish" vazifasi qo'yilgan. Resurslardan samarali foydalanishda sanoat korxonalariga innovatsiyalarni joriy qilish, raqamlashtirish mintaqada kichik sanoat zonalarini tashkil qilish orqali ularni raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masala hisoblandi. Raqobat ustunligi strategik boshqaruv sohasidagi tadqiqotlarda to'g'ridan- to'g'ri va bilvosita tushuncha sifatida kiritilgan. Raqobat ustunligi turli shakllarda strategik menejmentda doimiy tadqiqot sohasi bo'lib kelgan. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasi va innovasion islohotlarni chuqurlashtirish har bir davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Global raqobatning kuchayishi, texnologik yangilanishlar, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi hamda resurslardan oqilona foydalanish talablari sanoatning yangi bosqichda rivojlanishini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston sanoat sektorida chuqur islohotlar amalga

oshirilmoqda va iqtisodiyotning innovasion-texnologik yangilanishini ta'minlaydigan industrial transformatsiya jarayoni jadallashmoqda.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishning qayta ishlash ulushini oshirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnoparklar, kichik sanoat zonalari va sanoat klasterlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sanoat 4.0 g'oyalariga asoslangan avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlari, energiya samarador texnologiyalarini joriy etish orqali korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish, eksport yo'nalishini kengaytirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilgan.

Asosiy qism. Jahonda innovatsion omillar hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash borasidagi tajribalar asosida zamonaviy sanoat tarmoqlarining innovatsion faolligi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish, xizmat) raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, ishlab chiqarish tizimida innovatsiya tasnifi va innovatsion jarayonlar xususiyatlari, korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasi va innovatsion loyihalarni baholash usullari, sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoqlarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning konseptual yo'nalishlarini tadqiq etish bu boradagi muhim ilmiy yo'nalishlarni namoyon etmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari, jumladan, sanoat tarmog'ini jadal rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Sanoat korxonalarini yuqori darajadagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali innovatsion iqtisodiyotga o'tish bo'yicha katta sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada «...barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi». Mazkur vazifalarni hal etishda sanoat ishlab chiqarishi tizimida innovatsion faollikni oshirish, innovatsion-investitsion faoliyatni amalga oshirish tendensiyalari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, innovatsion loyihalar samaradorligini baholash, korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish singari yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-sonli «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida», 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-sonli «2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonlari, 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-sonli

«Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatida sanoat korxonalari boshqaruvi amaliyotiga innovatsion loyihalarni joriy etish orqali yangi iste'mol qiymatlarini yaratish, sanokt korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining global raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanish indeksi ko'rsatkichlarini oshirishga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Sanoat korxonalarini innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etilishi korxonaning iqtisodiy samaradorlikka erishishi uchun muayyan darajada xizmat qiladi. Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizda mahsulotga doir innovatsiyalarni amaliyotga joriy etgan korxonalarda yollanma ishchilarning jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi innovatsiyalarni joriy qilmagan korxonalarga nisbatan o'rta hisobda 12 mln. so'mga, boshqaruvga oid innovatsiyalarni joriy qilgan korxonalarda esa 26 mln. so'mga, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilishda tashqi bilimlarni o'zlashtirgan korxonalarda esa 19 mln. so'mga, innovatsiyalarni joriy etishda ichki va tashqi imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga 44 mln. so'mdan ishlab chiqarish hamji ortganligi aniqlandi (1-jadvalga qarang). Ushbu holat innovatsion boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan korxonalarda an'anaviy boshqaruvga ega bo'lgan korxonalarga nisbatan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi sezilarli darajada baland bo'lishidan dalolat beradi.

1-jadval

2018-2020 yillarda O'zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi (yollanma hodimlarning jon boshiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish hajmi, mln. so'mda)

	Innovatsiya joriy qilmaganlar	Innovatsiya joriy qilganlar	Farqi, mln. so'mda
Mahsulotga doir innovatsiyalar	55	76	12
Boshqaruvga oid innovatsiyalar	55	81	26
ITTKIga xarajat qilganlar	57	88	31
Tashqi amaliy bilimlarni o'zlashtirganlar	57	76	19

Mamlakatimizda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari tahliliga ko'ra, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonaning ko'lami ortib borgan sari, uning innovatsion faolligi ham mos ravishda ortadi. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yurituvchi kichik korxonalarning 28 foizi, o'rta

korxonalarning 30 foizi, yirik korxonalarning esa 32 foizi mahsulotga doir innovatsiyalarni o'z amaliyotiga joriy etishgan bo'lsa, boshqaruvga oid innovatsiyalar mos ravishda kichik korxonalarda 14 foizni, o'rta korxonalarda 19 foizni, yirik korxonalarda bo'lsa 22 foizni tashkil etgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz asosida mamlakatimizda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi amaliyotini rivojlantirish, jumladan, ularning innovatsion faolligini oshirishga ustuvorlik qaratilishi zaruriyati mavjudligi anglatadi. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini tashkil etishning ilg'or xorij tajribasi qiyosiy tahlili qilish asosida mamlakatimizda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz. Xududlarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sanoat korxonalari uyushmalarini tashkil etilishi orqali innovatsiyalarni o'zaro uzatish teziligini oshirish bilan bir qatorda, korxonalar o'rtasidagi innovatsion hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish imkonini beradi. taklif etilayotgan mexanizm asosida hududiy sanoat korxonalari uyushmalari quyidagi vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi:

- sanoat korxonalari tomonidan innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish;
- sanoat korxonalari o'rtasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni shakllantirish;
- sanoat korxonalari o'rtasida innovatsiyalarni o'zaro uzatishni jadallashtirish;
- innovatsion marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- yangi innovatsion loyihalarga bo'lgan talablarni shakllantirish;
- sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini rivojlantirishda ichki va tashqi imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Xulosa. Yuqorida taklif etilgan sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amaliyotga joriy etish orqali uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz sanoat korxonalarining innovatsion faolligi darajasi ortib, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashning dasturlarining samaradorligi ko'rsatkichlari ortib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida PF-60-sonli Farmon. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018). "Qashqadaryo viloyatida davlat mulki ob'ektlarini tadbirkorlik sub'ektlariga realizatsiya qilish va kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3513-sonli Qaror. Toshkent.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2018). "Qashqadaryo viloyatida qo'shimcha kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida" 308-sonli Qaror. Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-6243-sonli Qaror. Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). "Respublika hududlarida mebelsozlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5155-sonli Qaror. Toshkent.
6. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
7. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.
8. Brexova, Y., & Kurbanova, A. (2019). Korxona iqtisodiy salohiyati tushunchasi va uni baholash yondashuvlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2(3), 45–52.